



**ZAMONAVIY KLINIK  
LABORATOR TASHXISI  
DOLZARB MUAMMOLARI**  
xalqaro ilmiy-amaliy  
anjuman



**27 dekabr 2022 yil**



**O'zbekiston Respublikasi Sog'Liqli saqlash vazirligi**

**[www.ssv.uz](http://www.ssv.uz)**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi**

**[www.tma.uz](http://www.tma.uz)**

5. Yushchuk N.D., Klimova E.A., Znoiko O.O. i dr. Protokol diagnostiki i lecheniya bol'nykh virusnymi gepatitami V i S. Ros zh gastroenterol, gepatol, koloproktol. 2010; 20(6): 4-60.

**ALLERGIK REAKSIYALARDA DAVOLASHNING  
SAMARADORLIGINI BAHOLASH**  
**Tairova G.B., Kurbonova Z.Ch., Saidalixo'jayev A.S.**  
**Toshkent tibbiyot akademiyasi**

Allergik reaksiyalarda qonda eozinofillar miqdori va IgE oshqdi. Eizinofillar 12-16 mkm diametrdagi yuumaloq hujayralar bo'lib, yadro sitoplazmatik nisbati 1:1. Yadrosi to'q binafsha rang, odatda ikkita segmentdan iborat, xromatin strukturasi notekis, yirik bo'lakchali. Sitoplazma oksifil, yirik sariq-pushti rangli maxsus granulalarga ega. Eizinofillar qonda 6-12 soat bo'ladi, keyin to'qimalarga o'tadi. Eizinofillar 4 - 30 soat yashaydi. Normada leykoformulada 0-5% eizinofillar bo'ladi.

Eozinofillarning funksiyasi: allergik reaksiyalarni cheklash, antigement immunitetni hosil qilish, fagositoz, yallig'lanish jarayonida ishtirok etish, qon ivishida ishtirok etish.

**Tadqiqot maqsadi:** Allergiyada dezloratadin samaradorligini baholash.

**Materiallar va metodlar. Tadqiqotlar** TTA ko'p tarmoqli klinikasida 25 ta bemorda olib borildi. Bemorlar venoz qonida eozinofillar Mindray 5000 (Xitoy) gematologik analizatorida va sitologik usulda Human (Germaniya) reagentlarini qo'llab tekshirildi, Ig E miqdori immunoferment analiz usulida Mindray MR 96A analizatorida Human (Germaniya) reagentlarini qo'llab tekshirildi

**Tadqiqot natijalari.** Tadqiqotlar davomida dezloratadin bilan terapiyani 10 kun davomida turli allergiyasi mavjud bemorlarda olib borildi. Davolash samarasi qondagi eozinofillar sonining va Ig E miqdorining kamayishi bilan baholandi. Bemorlarning 86% ida davolash fonida eozinofillar soni  $12,4 \pm 1,3\%$  dan  $1,1 \pm 0,7\%^{***}$  gacha, Ig E  $221 \pm 18$  B/ml dan  $36 \pm 2,4$  B/ml<sup>\*\*\*</sup> gacha kamaygan bo'lsa, 14% bemorlarda davolash natijalari samarasiz bo'ldi: eozinofillar soni  $13,8 \pm 1,4\%$  dan  $11,5 \pm 1,2\%$  ga, Ig E  $234 \pm 21$  B/ml dan  $216 \pm 2,2$  B/ml ga o'zgardi.

**Xulosa.** Allergiyasi mavjud bemorlarda dezloratadin bilan terapiya 86% hollarda samarali bo'lib, bemorlarda kuzatiladigan turli asoratlarni oldini olishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu vosita qancha erta muddatda qabul qilinsa, uning samaradorligi shuncha oshadi.

**Adabiyotlar.**

1. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Цитологик ташхисга кириш: ўқув кўлланма. Тошкент, 2022. 137 б.
2. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova S.A. Sitologik tashxis asoslari: o'quv – uslubiy qo'llanma. Toshkent. - “TTA nashriyoti”, 2022. -47 b.
3. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova S.A. Sitologik tashxisga kirish: o'quv qo'llanma. Toshkent, “Hilol nashr”, 2021. 152 b.

4. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2022. 140 b.

5. Saidov A.B. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Gematologik kasalliklar sitologik diagnostikasi: o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent, Toshkent tibbiyot akademiyasi bosmaxonasi, 2021. – 56 b.

## **KLINIK LABORATOR DIAGNOSTIKA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TELETIBBIYOT IMKONIYATLARI**

**Xalmuxamedov B.T.**

*Toshkent tibbiyot akademiyasi*

Elektron sog'liqni saqlashning samarali ishlashi uchun tibbiyot xodimlarini tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash kerak. Tibbiyot universitetida zamonaviy laborator jarayonini modernizatsiya qilish jarayonida yuqori texnologiyalarga asoslangan faol usullari tizimini joriy etish dolzarb vazifadir.

Bugungi kunda teletibbiyot doirasida masofaviy o'qitish quyidagilarni o'z ichiga oladi: tibbiyot talabalari va tibbiyot xodimlarini tayyorlash, shifokorlarning malakasini oshirish; sirtqi aspirantlar va doktorantlar bilan ishlash; laborator va instrumental diagnostika va davolashning yangi usullari to'g'risida tezkor ma'lumot almashish uchun seminarlar, hozirda faqat ixtisoslashtirilgan sog'liqni saqlash muassasalarida mavjud; operatsiyalarni masofadan translyasiya qilish; foydalanuvchilarni yangi tibbiy texnologiyalar, uskunalar va boshqalarni o'zlashtirishga o'rgatish; markazlashtirilgan va xalqaro tibbiyot markazlari va o'quv markazlari xizmatlaridan foydalanish.

Tibbiy videokonferensiyalar uchun standart uskunalar to'plamiga odatda quyidagilar kiradi: ISDN kanal, Kompyuter, Videokonferens aloqa uskunalari, Tasvirlarni kiritish, qayta ishlash va saqlash uchun uskunalar, Videoregistrator, Audio aloqa tizimi, dasturlar va boshqalar (skaner, kompyuterga video kiritish kartasi, tasvirni qayta ishlash va saqlash dasturi; bemor tahlillari bilan ma'lumotlar bazasini saqlash dasturi).

Masofaviy o'qitish uchun yechimlar maqsadga qarab turli xil tizimlarga (kodeklarga) asoslanishi mumkin (binolar hajmi, tinglovchilar soni, bir vaqtning o'zida ulangan masofaviy punktlar soni va boshqalar.). Masalan, an'anaviy televizorlar yoki plazma panellar bilan to'ldirilgan ixcham kodeklardan foydalanish mumkin. Bu sensorli ekranli boshqaruv paneli (sensorli ekran), ya'ni grafik interfeys tugmachalarini to'g'ridan-to'g'ri panel ekranida bosib, butun masofaviy o'qitish tizimini osongina boshqarish imkonini beruvchi qurilma. Boshqariladigan qurilmalar ro'yxatiga kameralar, har qanday turdagi yozib olish moslamalari, hujjatli kameralar va mikrofonlar kiradi. Bunday uskunalar orasida shiftga joylashtirilgan va xonada bo'lganlarning barchasini suhbatga qo'shish imkonini beruvchi maxsus mikrofon mavjud.

O'zbekistonda teletibbiyot texnologiyalarini rivojlantirish va qo'llashning asosiy yo'nalishlari belgilab olindi: teletibbiyot maslahat / teleustozlik. Bunday holda, bemorni davolovchi shifokor boshqa tibbiy muassasada, shu jumladan boshqa shaharda joylashgan maslahatchi bilan muhokama qiladi; telemetibbiyot